O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

# 10-XALQARO TURKLAR DUNYOSI IJTIMOIY FANLAR SIMPOZIUMI

## MATERIALLARI

"Boshlang'ich ta'limda raqamli ta'lim muhitini yaratishning nazariy asoslari va amaliy yechimlari: Turk davlatlari tajribasi"

**Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

15-may, 2026-yil
Urganch shahri



**II JILD**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

# “10-XALQARO TURKLAR DUNYOSI IJTIMOIY FANLAR SIMPOZIUMI (Boshlang‘ich ta’limda raqamli ta’lim muhitini yaratishning nazariy asoslari va amaliy yechimlari: Turk davlatlari tajribasi”

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

**MATERIALLARI**

(15-may, 2026-yil, Urganch sh.)

**II jild**

**Urganch–2026**

**UO‘K: 37.018.43:004(063)**
**KBK: 74.202.5+32.973ya431**
**U 47**

**“10-XALQARO TURKLAR DUNYOSI IJTIMOIY FANLAR SIMPOZIUMI (Boshlang‘ich ta’limda raqamli ta’lim muhitini yaratishning nazariy asoslari va amaliy yechimlari: Turk davlatlari tajribasi”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari, [Matn] II Jild. – Xorazm: Khwarezm publication, 2026. – 1071 b.

Mazkur to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida 2026-yil 15-may kuni Urganch davlat pedagogika institutida “10-XALQARO TURKLAR DUNYOSI IJTIMOIY FANLAR SIMPOZIUMI (Boshlang‘ich ta’limda raqamli ta’lim muhitini yaratishning nazariy asoslari va amaliy yechimlari: Turk davlatlari tajribasi” mavzusida tashkil etiladigan xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan iborat.

To‘plamda joy olgan tezislarda keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar javobgardirlar.

| | |
|---|---|
| **Mas’ul muharrirlar:** | **D.Sh.Nafasov – p.f.f.d (PhD), dotsent**<br>**A.J.Atajonova – f.f.n., professor**<br>**Sh.Y.Yusufzoda – p.f.f.d (PhD), dotsent** |
| **Tahrir hay’ati raisi:** | **D.N.Abdullayev – t.f.d. (DSc), professor** |
| **Tahrir hay’ati:** | **O.S.Pirmatova – f.f.f.d (PhD), v.b., dotsent**<br>**F.A.Raximova – katta o‘qituvchi**<br>**A.S.Otamurodova – o‘qituvchi**<br>**G.U.Atajanova – o‘qituvchi**<br>**S.X.Yo‘ldosheva – tayanch doktorant**<br>**G.Q.Jumanazarova – tayanch doktorant** |
| **Taqrizchilar:** | **S.U.Xodjaniyazov – p.f.d. (DSc), professor**<br>**M.X.Jumanyozova – f.f.d. (DSc), professor** |

**ISBN: 978-9910-280-18-4**

**©“Khwarezm publication” MChJ nashriyoti, 2026 y.**
© **“10-XALQARO TURKLAR DUNYOSI IJTIMOIY FANLAR SIMPOZIUMI (Boshlang‘ich ta’limda raqamli ta’lim muhitini yaratishning nazariy asoslari va amaliy yechimlari: Turk davlatlari tajribasi”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari

## 4-SHO'BA. TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI PLATFORMALAR: SUN'IY INTELLEKT VA GAMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

# SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA AKADEMIK ERKINLIK VA ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

**Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li**
Urganch davlat pedagogika instituti
"Aniq va tabiiy fanlar fakulteti" dekani,
"Maktabgacha ta'lim" kafedrasi professori v.b.,
p.f.b.f.d.(PhD), mustaqil izlanuvchi,
(Xorazm viloyati, Urganch shahri)
**(sh.xudayberganov.urdu@mail.ru, +99897 792 19 09)**
**ORCID-0009-0007-9006-8998**

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada zamonaviy oliy ta'lim tizimi sharoitida, xususan raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal joriy etilishi negizida, sun'iy intellekt asosida akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Akademik erkinlikning bo'lajak pedagog kadrlar shaxsida ilmiy subyektivlikni shakllantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda refleksiv tadqiqotchilik kompetensiyalarini qaror toptirishdagi pedagogik ahamiyati asoslab beriladi.*

*Shuningdek, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati sun'iy intellektga asoslangan raqamli ta'lim vositalari bilan integratsiyalashgan holda, talabalarning ilmiy izlanish jarayonini qo'llab-quvvatlovchi hamda ularning intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi muhim pedagogik mexanizm sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalari sharoitida akademik erkinlik va ilmiy izlanish faoliyatining o'zaro uyg'unligi bo'lajak pedagog kadrlarning innovatsion va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:*** *akademik erkinlik, konvergentsiya tushunchasi, mustaqil fikrlash, pedagogik jarayon, konseptual yondashuv, innovatsion pedagogik muhit, ilmiy tadqiqot, refleksiv tadqiqot, zamonaviy ta'lim, ilmiy izlanish, intellektual rivojlanish.*

***Аннотация.*** *В данной статье в условиях современной системы высшего образования, особенно на фоне активной цифровой трансформации и внедрения технологий искусственного интеллекта, проводится теоретико-методологический анализ педагогических механизмов развития академической свободы и научно-исследовательской деятельности на основе искусственного интеллекта. Обосновывается педагогическое значение академической свободы в формировании научной субъектности будущих педагогических кадров, развитии самостоятельного и критического мышления, а также становлении рефлексивных исследовательских компетенций личности.*

*Также научно-исследовательская деятельность рассматривается как важный педагогический механизм, обеспечивающий поддержку исследовательского процесса студентов и развитие их интеллектуального потенциала в условиях интеграции с цифровыми образовательными инструментами на основе искусственного интеллекта. Результаты исследования показывают, что взаимосвязь академической свободы и научно-исследовательской деятельности в условиях технологий искусственного интеллекта является важным фактором развития инновационных и рефлексивных компетенций будущих педагогических кадров.*

***Ключевые слова:*** *академическая свобода, понятие конвергенции, самостоятельное мышление, педагогический процесс, концептуальный подход, инновационная педагогическая среда, научное исследование, рефлексивное исследование, современное образование, научный поиск, интеллектуальное развитие.*

***Annotation.*** *This article provides a theoretical and methodological analysis of the pedagogical mechanisms for developing academic freedom and research activity based on artificial intelligence in the context of modern higher education, particularly under the conditions of rapid digital transformation and the widespread implementation of artificial intelligence technologies. The pedagogical significance of academic freedom is substantiated in terms of forming scientific subjectivity in future teaching personnel, developing independent and critical thinking, and fostering reflective research competencies.*

*Furthermore, research activity is interpreted as an important pedagogical mechanism that supports students’ research processes and enhances their intellectual potential through integration with digital educational tools based on artificial intelligence. The results of the study demonstrate that the interrelation between academic freedom and research activity in the context of artificial intelligence technologies is a key factor in the development of innovative and reflective competencies of future teaching staff.*

***Key words:*** *academic freedom, the concept of convergence, independent thinking, pedagogical process, conceptual approach, innovative pedagogical environment, scientific research, reflective research, modern education, research inquiry, intellectual development.*

***Kirish.*** Pedagogik tizimlarda konvergentsiya jarayoni ta’lim mazmuni, metodlari, subyektlari va natijalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikning kuchayishi orqali namoyon bo‘ladi. Agar an’anaviy ta’lim modellarida mazkur komponentlar nisbatan mustaqil va fragmentar holatda qaralgan bo‘lsa, konvergent yondashuv ularni yagona pedagogik tizim doirasida birlashtirishni nazarda tutadi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, subyektlarning faolligini kuchaytirish va bilimlarning amaliy ahamiyatini ta’minlash imkonini beradi.

Konvergentsiya tushunchasi pedagogikada tizimli yondashuv va sinergetik paradigma bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Tizimli yondashuvga ko‘ra, ta’lim jarayoni o‘zaro bog‘langan elementlardan tashkil topgan yaxlit tizim bo‘lib, undagi har bir elementning o‘zgarishi butun tizim faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Sinergetik yondashuv esa pedagogik jarayonlarda o‘z-o‘zini rivojlantirish, ichki resurslarning faollashuvi va kutilmagan ijobiy natijalarning yuzaga kelishini asoslaydi. Shu nuqtai nazardan, konvergentsiya pedagogik tizimda sinergetik effektni yuzaga keltiruvchi muhim mexanizm sifatida talqin etiladi.

**Material va metodlar.** Mazkur maqolada akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati o‘rtasidagi konvergentsiya jarayonini o‘rganishda nazariy va ilmiy-metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot materiallari sifatida ilmiy-pedagogik adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD) hisobotlari hamda xorijiy va mahalliy oliy ta’lim muassasalari tajribalari tahlil qilindi.[1]

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish va konseptual tahlil metodlari qo‘llanildi. Ushbu metodlar akademik erkinlikning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bilan o‘zaro uyg‘unlashuvini aniqlash, ularning pedagogik jarayondagi o‘rni va ahamiyatini asoslashga xizmat qildi.

**Asosiy qism.** Keling endi “konvergentsiya” tushunchasining ilmiy tildagi izohini izlash orqali ushbu maqoladagi fikrlarimizni bayon qilsak.

***Konvergentsiya* -** bu ikki yoki undan ortiq mustaqil jarayonlarning o‘zaro yaqinlashuvi, integratsiyalashuvi va yagona funksional tizimga aylanishi jarayoni bo‘lib, pedagogik nuqtai nazardan, konvergentsiya ta’lim hodisalarining izolyatsiyalangan holatdan uzviy, tizimli va sinergetik birlikka o‘tishini anglatadi.[2]

Konvergentsiya tushunchasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ta’lim jarayonlarining murakkablashuvi, fanlararo integratsiya va ta’lim-fan-innovatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik kuchayib borayotgan sharoitda alohida ahamiyat kasb etib bormoqda.

Zamonaviy oliy ta’lim sharoitida konvergentsiya, avvalo, ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatining yaqinlashuvi orqali namoyon bo‘lmoqda. Ilmiy tadqiqotlar ta’lim jarayonidan ajratilgan mustaqil faoliyat sifatida emas, balki ta’lim mazmunining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Bu holat talabalarning bilimlarni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki bilim yaratuvchi faol subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonda akademik erkinlik alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi. Akademik erkinlik talabalarga ilmiy muammoni tanlash, tadqiqot metodlarini belgilash, ilmiy gipotezalarni ilgari surish va natijalarni mustaqil talqin qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati akademik erkinlikning amaliy ifodasi bo‘lib, uning real pedagogik jarayonda ro‘yobga chiqishini ta’minlaydi. Demak, akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati o‘rtasida dialektik o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ularning konvergentsiyasi zamonaviy oliy ta’limning muhim qonuniyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati konvergentsiyasi sharoitida talaba ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki ilmiy izlanishning faol subyekti sifatida shakllanadi. Bunday sharoitda o‘qituvchi esa bilimlarni tayyor holda uzatuvchi emas, balki ilmiy mentor, maslahatchi va yo‘naltiruvchi rolini bajaradi. Bu esa pedagogik jarayonda subyekt–subyekt munosabatlarining qaror topishiga olib keladi.[4]

Konvergent yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati talabalarda tanqidiy fikrlash, refleksiya, mustaqil qaror qabul qilish va ilmiy mas’uliyat kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi. Mazkur kompetensiyalar esa akademik erkinlik mavjud bo‘lmagan sharoitda to‘liq shakllanmaydi. Shu bois akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining o‘zaro integratsiyasi talabalarning kasbiy va ilmiy salohiyatini rivojlantirishning zaruriy sharti sifatida qaraladi.

Shuningdek, konvergentsiya jarayoni ta’lim mazmunining fanlararo va muammoga yo‘naltirilgan xarakter kasb etishiga ham olib keladi. Ilmiy tadqiqotlar real muammolarni hal

etishga qaratilgan bo‘lib, ularning yechimi turli fanlar bilimlarini integratsiya qilishni talab etadi. Natijada ta’lim jarayoni nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirgan holda tashkil etiladi, bu esa bilimlarning barqaror va ongli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.[6]

Konvergentsiya pedagogik kategoriya sifatida ta’lim hodisalarining izolyatsiyalangan holatdan uzviy, tizimli va sinergetik birlikka o‘tishini ifodalaydi. Akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati konvergentsiyasi esa zamonaviy oliy ta’limda talabaning ilmiy subyektivligini shakllantirish, ta’lim jarayonining innovatsion xarakterini ta’minlash va oliy ta’lim tizimining barqaror rivojlanishiga erishishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot natijalari akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati o‘rtasidagi konvergentsiya zamonaviy oliy ta’lim tizimida muhim pedagogik qonuniyat sifatida namoyon bo‘layotganini ko‘rsatdi. Akademik erkinlik faqatgina ta’lim subyektlarining huquqiy yoki institutsional mustaqilligi bilan chegaralanmay, balki talabaning ilmiy subyektivligini shakllantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda refleksiv tadqiqotchilik kompetensiyalarini qaror toptirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.[1]

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati akademik erkinlik muhitisiz to‘laqonli rivojlana olmaydi. Aksincha, ilmiy izlanishlar, mustaqil tadqiqot topshiriqlari, muammoli vaziyatlar va ilmiy muloqotlar orqali akademik erkinlikning real mazmuni ochiladi. Shu jihatdan, akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, kuchaytiruvchi va rivojlantiruvchi integrativ tizimni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati konvergentsiyasi zamonaviy oliy ta’limning strategik rivojlanish yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u talabalarning ilmiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni intellektual jihatdan yetuk, mustaqil va innovatsion fikrlovchi mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot xulosalari oliy ta’lim tizimida akademik erkinlikni kengaytirish va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini pedagogik jarayonning markaziy elementi sifatida qaror toptirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

**1**. UNESCO. *Reimagining our futures together: A new social contract for education* : global strategic report [Electronic resource]. – Paris : UNESCO, 2021. – Available at: https://unesdoc.unesco.org

2. *Гуревич П., Филатов О.* Философия и история образования. От античности до эпохи Просвещения. 2- е изд.- Москва: Юрайт, 2017. 230 с.

3. *Елишев С.О.* Эпоха просвещения и ее идеология: начало эры социального манипулирования.// Вестник Московского университета. 2022, №28 (4). С. 116-145.

4. *Кант И.* О педагогике. Собрание сочинения в восьми томах. Том 8.- Москва: Мысль, 1994. 720.с.

5. “Ta’lim o‘rinsiz tajribalarni xushlamaydi” // “O‘zbekistonda oliy ta’lim”, 2022, №4. 64- 65 b.

6. *Перегудов Л.В., Саидов М.Х.* Олий таълим менежменти вап иқтисодиёти.- Тошкент: Молия, 2002. 149 б.

7. *Salaeva M.S.* Umumiy pedagogika. – Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021. - 598 b.

| | MUNDARIJA | |
|---|---|---|
| 3-SHO‘BA. TA’LIM EKOTIZIMI SHAROITIDA TARBIYA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH VA IJTIMOIY TENGLIKNI TA’MINLASH MASALALARI | | |
| 1. | **ZULFIYA KARIMOVA**. KAPSAYICI EĞİTİM ORTAMINDA ÖĞRENCİLERİN ALGİSAL BECERİLERİNİN GELİŞTİRİLMESİNE YÖNELİK GELECEĞİN ÖZEL EĞİTİM ÖĞRETMENLERİNİN HAZIRLANMASI. | 3 |
| 2. | **МЕДИЕВИЧ ЮСУПОВ, ОЗОД ИБРАГИМОВИЧ ХАСАНОВ**. ОБЕСПЕЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНОГО РАВЕНСТВА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА В ПЕРИОД ТРЕТЬЕГО РЕНИССАНСА | 4 |
| 3. | **JUMANYAZOVA MUXABBAT XUSINOVNA**. INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING LUG‘AT BOYLIGINI OSHIRISH | 9 |
| 4. | **OLLABERGANOVA SANOBAR XAMIDOVNA.** FOLKLOR JANRLARI VA ULARNING IJTIMOIY, METODIK VA LINGVISTIK FUNKSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH | 13 |
| 5. | **QURBANOVA YULDUZXON ILXAMOVNA.** ONA TILI DARSLARIDA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH ORQALI NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH | 16 |
| 6. | **MATNAZAROV J.K**. “TOYOQTOMDA TO‘Y BO‘LMAGAN EDI…ASARINI O‘QITISHNING INTERFAOL MODELLARI. | 20 |
| 7. | **TILAVOVA MINAVAR DURDIYEVNA.** TALABALARNING NUTQIY KOMPERENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI | 23 |
| 8. | **ATAJONOVA SADOQAT BAXTIYOROVNA.** INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA NUTQIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA O‘QUV-BILUV TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH (4-SINF MISOLIDA) | 26 |
| 9. | **ATAJONOVA SHOHISTA SOATBOYEVNA.** O‘ZBEK VA TURK MAQOLLARINING SEMANTIK MAYDONI VA ULARDA YETAKCHI MAVZULARNING IFODALANISHI. | 30 |
| 10. | **SADULLAYEV ATANAZAR ATAXANOVICH.** MILLIY HARAKATLI O‘YINLARINING BOSHLANG‘ICH SINF TA’LIMIDAGI AHAMIYATI. | 34 |
| 11. | **BEKCHANOV MA’MUR TOXIR O‘G‘LI.** TALABALAR JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH VA MONITORING QILISHNI DOLZARB MUAMMOLARI. | 37 |
| 12. | **YESHIMBETOVA OYSHA KOMILJON QIZI.** BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA INNOVATSION O‘QITISH METODLARI. TURKIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA. | 40 |
| 13. | **SAPAYEVA DINARAXON RUSLANOVNA.** RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA GENDER YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARDA SHARQONA TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. | 45 |
| 14. | **ELTAZAROVA SHOXIDA SARDORBEK QIZI.** BOSHLANG‘ICH ONA TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIMIY O‘YINLARDAN FOYDALANISHGA INNOVATSION YONDASHUV. | 49 |

| | | |
|---|---|---|
| **30.** | **RAIMBOYEVA MA’MURA ODILBEK QIZI.** OLIY TA’LIMDA RAQAMLI INNOVATSIYALAR SHAROITIDA TALABALARNING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENSIYASINI AKMEOLOGIK MODELLASHTIRISH | 111 |
| **31.** | **IMAMOVA NILUFAR ZABIYXULLA QIZI, SOLOYEVA RAYHONOY RAVSHANBEK QIZI.** MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARINING BOSHQARUV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH. | 116 |
| **32.** | **КАДАМОВА БАРЧИНОЙ КОСИМЖОН КИЗИ.** НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ВЕРБАЛЬНОЙ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ. | 119 |
| **33.** | **ISMAILOVA SH.K.** BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA RAQAMLI TA’LIM METODIKALARINI QO‘LLASH, | 122 |
| **34.** | **SHARIPOV DILSHOD OZATOVICH.** IQTIDORLI TALABALARNI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH | 125 |
| **35.** | **RUZIBOYEVA MUNISA DAVRONBEK QIZI**. TA’LIM MUASSASALARIDA OILA–MAKTAB–JAMIYAT HAMKORLIGI ASOSIDA TARBIYA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH HAMDA IJTIMOIY TENGLIKNI MUSTAHKAMLASH YO‘LLARI | 128 |
| **36.** | **SABIROVA MUYASSAR DILMUROD QIZI.** ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMI EKOTIZMI SHAROITIDA TARBIYA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH VA IJTIMOIY TENGLIKNI TA’MINLASHNING INNOVATSION PEDAGOGIK MEXANIZMLARI | 131 |
| **4-SHO‘BA. ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA DIDAKTIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH** | | |
| **1.** | **XUDAYBERGANOV SHUHRAT SHAVKAT O‘G‘LI.** SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA AKADEMIK ERKINLIK VA ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI | 137 |
| **2.** | **NURULLAYEVA SHAXLO UKTAMOVNA.** VIRTUAL TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGLARNING O‘Z USTIDA ISHLASH BOSQICHLARI | 141 |
| **3.** | **SALAYEVA MUXABBAT SABUROVNA.** BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLARNING AHAMIYATI VA MAZMUNI | 144 |
| **4.** | **NURULLAYEVA SAYYORA UKTAMOVNA**. RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA UNING TEXNIK TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI IMKONIYATLARI | 148 |
| **5.** | **SOATOVA NODIRA ISOMITDINOVNA.** HAJVIYOTDA POETIK TASVIR VA LIRIK QAHRAMON TALQINI | 151 |
| **6.** | **DO‘STOVA SURAYYO SAVRONOVNA.** YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA “ALISHER NAVOIY G‘AZALLARI” MAVZUSINI O‘QITISH | 156 |
| **7.** | **ESHONQULOVA SURAYYO ISOMIDDINOVNA.** NODIRA IJODIDA JAMSHID TIMSOLI VA UNING BADIIY JILOLARI | 164 |
| **8.** | **GAFUROVA SURAYYO ULUG‘BEKOVNA. MUMINOVA NODIRAXON JURAYEVNA.** BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KVEST TEXNOLOGIYASI | 167 |